

## QISHLOQ XO'JALIGIDAGI YANGI TASHABBUSLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-noyabr kuni paxtachilikda samaradorlikni ilg'or tajriba va texnologiyalar asosida oshirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

**ОБСУЖДЕНЫ ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ УЗБЕКСКО-ТУРКМЕНСКОЙ ЗОНЫ ПРИГРАНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ**

Продолжение → 9 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

#93 (3287) 20.11.2025

# BIZNES DAILY BIRJA

GAZETA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO'MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

## O'zbekiston Prezidenti OTB bilan strategik sheriklikni yanada kengaytirish muhimligini ta'kidladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-noyabr kuni Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Suhbat avvalida OTB rahbari mamlakatimiz yetakchisini strategik sheriklikning 30 yilligi hamda 2025-2026-yillarda bankning Boshqaruvchilar kengashiga raislik O'zbekistonga o'tgani bilan tabrikladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturini amalga oshirish doirasida keng ko'lamli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zbekiston bankning mintaqadagi eng yirik hamkori bo'lib qolmoqda - qo'shma loyihalar portfeli 15 milliard dollardan oshdi. Shuningdek, "yashil" energetika, transport, raqamli transformatsiya, ta'lim



va boshqa yo'nalishlarda umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod loyihalar ishlab chiqilmoqda. Suveren bo'lmagan moliyalashtirish mexanizmlari faol joriy etilmoqda.

OTB Boshqaruvchilar kengashining 2026-yil may oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan yillik yig'ilishiga tayyor-

garlik ko'rishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidenti bo'lajak tadbir doirasida OTB bilan Kengaytirilgan strategik sheriklik dasturini imzolash, unda infratuzilmani rivojlantirish, texnik va muhandislik kadrlarini tayyorlash, xotin-qizlar va yoshlarni yangi kasblarga o'qitish, kam-



bag'allikni qisqartirish, ipoteka bozori va xususiy sektorni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish tashabbusini ilgari surdi.

Bankning yirik milliy va mintaqaviy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida transport, energetika va savdo loyihalarini

ilgari surishda faol ishtirok etishi muhim ekani ta'kidlandi.

OTB prezidenti Masato Kanda mamlakatimizdagi keng ko'lamli yangilanishlar natijalarini yuksak baholadi hamda Yangi O'zbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashishga tayyorligini bildirdi.

## Mehnat migratsiyasi sohasidagi vazifalar va rejalar taqdimot qilindi



18-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevga tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish va migratsiya jarayonlarini xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yish masalalari yuzasidan axborot berildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarni mehnat qilish uchun chet elga tartibli jo'natish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar tufayli mehnat bozori diversifikatsiya qilinmoqda, fuqarolar asosan yuqori maoshli ish o'rinlarida ishlash uchun xorijga ketmoqda. Natijada 2016-yilga nisbatan chet elda ishlayotgan fuqarolarning soni kamaygan bo'lsa-da, ular tomonidan

yuborilgan mablag' 3,8 milliard dollardan 2025-yilning o'n oyi yakunida 15,8 milliard dollarga yetdi.

Taqdimotda xorijiy mehnat bozorida malakali mutaxassislarga katta talab borligi qayd etildi. Hozirda 140 ming nafar mutaxassisga buyurtma mavjud, ammo til va kasbiy malaka bo'yicha talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash borasida qilinadigan ishlar hali ko'pligi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, mehnat migratsiyasi xizmatlari tarqoq bo'lgani uchun odamlar ovoragarchilikka duch kelmoqda.

Davomi → 2-betda

Jarayon

Davlat-xususiy sheriklik: umumiy maqsad ko'zlangan mexanizm

→ 3-betda



Международное сотрудничество

Встреча с президентом Азиатского банка развития

→ 9 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

РЕКЛАМА VA E'LONLAR BO'LIMI

+998 (99) 353-55-54



telegram BIZNES DAILY BIRJA

Boshlanishi → 1-betda

## Mehnat migratsiyasi sohasidagi vazifalar va rejalar taqdimot qilindi

Shu maqsadda sohadagi xizmatlarni tartibga solish, barcha jarayonlarni "yagona darcha" tamoyili asosida birlashtirish vazifasi qo'yildi.

Toshkent shahri Uchtepa tumanida "Xorijga ishga tayyorlash markazi", Termiz shahrida "Yagona migratsiya xizmatlari" markazi tashkil etiladi. Poytaxtning Yashnobod tumanida esa xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda nemis va yapon tillariga o'qitish maktablari ochiladi.

So'nggi yillarda Yevropa mamlakatlariga migratsiya oqimi 4 barobar ko'paygani ta'kidlandi. U yerda ishlayotgan fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish muhimligi qayd etildi. Ayni paytda qator Yevropa davlatlari bilan mehnat migratsiyasi bo'yicha kelishuvlar mavjud emas. Prezident tomonidan tegishli hukumatlararo hujjatlarining imzolash ishlarini jadallashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda migratsiya bo'yicha attashe va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mehnat migratsiyasi agentligi vakolatxonalarini ko'paytirish, mamlakatimiz hududlarida esa viza markazlarining ko'chma ofislarini ochish rejalashtirilgan.

Taqdimotda migratsiya xizmatlarini raqamlashtirish masalasi ham ko'rib chiqildi.

"Xorijda ish" platformasida 25 turdagi xizmat taqdim etilmoqda, joriy yil boshidan buyon 524 ming fuqaro onlayn xizmatlardan foydalangan. Lekin xizmatlarning barchasi ham raqamlashtirilmagan.

Prezidentimiz tizimga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini qayd etdi. Platformada biometrik identifikatsiya, xorijdagi ish o'rinlarini real vaqt rejimida kuzatish, fuqarolarga masofaviy maslahat berishni yo'lga qo'yish bo'yicha rejalar haqida axborot berildi. Migratsiya agentligida fuqarolarga tun-u kun tezkor yordam beradigan situatsion markaz tashkil etish taklif qilindi.

Taqdimotda noqonuniy migratsiya va konsalting xizmatlari ko'rsatishda firibgarlik holatlari ko'payib borayotgani ko'rsatib o'tildi. Shu munosabat bilan mehnat migrantlarining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida xalqaro aeroportlarda interaktiv migratsiya infokiosklarini



o'rnatish, litsenziyasiz faoliyatni amalga oshirgan konsalting tashkilotlari uchun jarima miqdorini oshirish taklif qilindi. Jinoyat kodeksiga noqonuniy migratsiyani tashkil etish va ko'maklashish uchun javobgarlik kiritish masalasini o'rganish topshirildi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni ma'qullab, mehnat migratsiyasi jarayonlarini yanada qulay, xavfsiz va shaffof qilish bo'yicha mutasaddilarga qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

## Qishloq xo'jaligidagi yangi tashabbuslar ko'rib chiqildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-noyabr kuni paxtachilikda samaradorlikni ilg'or tajriba va texnologiyalar asosida oshirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Sohaning iqtisodiyotdagi ulushi 20 foizni tashkil etmoqda, unda yiliga 467 trillion so'mlik mahsulot yaratilmoqda, 3,5 million kishi mehnat qilmoqda. Shu bilan birga, meva-sabzavot, yangi va qayta ishlangan agrar mahsulotlar umumiy eksportning uchdan bir qismini ta'minlamoqda.

Taqdimotda paxtachilikda hosildorlikni oshirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Buning uchun past hosil oloyotgan fermerlar bilan manzilli

ishlash, ilg'or agroteknologiyalar va oziqlantirish amaliyotlarini to'g'ri joriy etish, agronom tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish choralarini belgilab olindi.

Jumladan, paxtachilikda ustoz-shogird an'analarini yo'lga qo'yish orqali hosildorlikni 60 sentnerdan oshirgan ilg'or fermerlarni 30 sentnerdan kam hosil olgan fermerlarga birlashtirish taklif qilindi.

Ilg'or fermerlar Qishloq xo'jaligi malaka oshirish institutida qayta tayyorlanib, ularga sertifikat beriladi. Past hosil olgan fermerlarda hosildorlik kamida

50 sentnerdan oshsa, ularga birlashtirilgan ilg'or fermerlarga 5 million so'mdan mukofot puli beriladi.

Agronomlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Agrar universitet va sohada agronomlarni tayyorlaydigan boshqa oliygohlar bitiruvchilari uchun ikki yillik "dual ta'lim" mexanizmi joriy etiladi. Ilg'or klaster va fermer xo'jaliklarida amaliyot o'tagan talabalarga stipendiya, ularni o'qitgan mutaxassislariga esa rag'bat puli to'lanadi.

Taqdimotda mahalliy paxta navlarini yaratish ishlari ham alohida ko'rib chiqildi.

Yurtimizda paxtachilik bo'yicha ikkita noyob ilmiy institut – Genomika markazi va Paxtachilik

instituti borligi, lekin ularning imkoniyati to'liq ishga solinmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Navlarni seleksiya qilish asosida paxta urug'chiligini yanada rivojlantirish maqsadida ushbu institutlarda fitotron va reproduksion issiqxona qurib berish topshirildi. Natijada yangi mahalliy nav yaratishga kerak bo'lgan vaqt 2,5 barobar qisqardi, olimlarning ishi tezlashib, import urug'ga ehtiyoj qolmaydi.

G'o'zani plyonka ostiga ekish tajribasini ommalashtirish rejalarini ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz sohada agrodronlardan foydalanishni kengaytirish, bu borada mutaxassislarni tayyorlash muhimligini ko'rsatib o'tdi.

Qishloq xo'jaligiga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi ham kun tartibida bo'ldi. Hozirda Qishloq xo'jaligi vazirligi va xorijiy kom-

paniyalar hamkorligida bu borada kadrlar tayyorlash va ilmiy infratuzilma yaratish bo'yicha qilinayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari ham muhokama qilindi.

2026-yildan paxta-g'alla, mevalar va dukkakli ekinlar bo'yicha hosilni ixtiyoriy sug'urtalash tizimini yo'lga qo'yish, sug'urta mukofotining 50 foizini budjetdan qoplab berish taklif qilindi.

Subsidiyalarni tizimini soddalashtirish maqsadida hozirda turli idoralar tomonidan berilayotgan 75 turdagi subsidiyani yagona platforma orqali ajratib boradigan Agrar sohada to'lov agentligini tashkil etish tashabbusi bildirildi. Bu fermerlar uchun ortiqcha ovoragarchilik va byurokratiyani keskin kamaytiradi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.



Zamira Tojiyeva.

# Davlat-xususiy sheriklik: umumiy maqsad ko'zlangan mexanizm

Iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, ayniqsa infratuzilmaga oid loyihalarga xususiy kapitalni jalb etish, bu yo'nalishda innovatsion yondashuvlarga tayanish orqali muammolarga yechim topishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi katta rol o'ynamoqda.

Shu bois ushbu mexanizmdan keng foydalanish va bu boradagi ishlarni strategik darajada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2030-yilgacha bo'lgan davrda esa 30 milliard



AQSH dollari miqdoridagi DXSh loyihalari dasturini hayotga tatbiq etish vazifasi qo'yilgan. Bu esa mazkur jarayonga mahalliy va xorijiy investorlarni ko'proq jalb qilish, ularning sohaga oid xabardorligini oshirish va ishtirokini kengaytirish, yangi moliyaviy yechimlar ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni talab etadi.

"Davlat-xususiy sheriklik orqali xususiy kapitalni mobilizatsiya qilish" mavzuidagi xalqaro davra suhbatini ayni shu maqsadda uyushtirildi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki (OTB) hamkorligida tashkil etildi. Uni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo'chqorov hamda OTBning Bozorlarni rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik ofisi rahbari Takeo Koike ochib berishdi va so'zga chiqishdi. Jamshid Qo'chqorovning ta'kidlashicha, kelgusidagi istiqbolli loyihalar asosan ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilma tarmoqlarini, jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash, transport va yo'l infratuzilmasi, elektr va gaz taqsimlash, suv resurslarini boshqarish va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bundan 6 yil avval DXSh yo'nalishi boshlaganidan so'ng umumiy qiymati 34 milliard dollarlik 2800 taga yaqin DXSh loyihasi imzolangan va bu tashabbuslar xorijiy sarmoyadorlar, yetakchi xalqaro banklar, jahon moliya institutlarining faol ishtiroki bilan bog'liq bo'lib, O'zbekistondagi islohotlar va kelajak salohiyatiga mustahkam ishonchni namoyon etadi. Shu bilan birga, hozirgi kunda mahalliy investorlar tomonidan, xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim va kommunal xizmatlarda ko'plab kichik va o'rta miqyosdagi DXSh loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu tendensiya DXSh nafaqat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vositasi, balki mahalliy

mexanizmlarini va loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional asoslarni aniqlash borasida xorijiy tajribani o'rganish muhim. Bundan tashqari, normativ-huquqiy va institutsional bazani yanada mustahkamlash maqsadga muvofiq.

OTBning Bozorlarni rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik bo'yicha ofisi rahbari Takeo Koikening e'tiroficha, O'zbekiston 7 yil ichida ulkan yutuqlarga erishdi. Bir paytlar kichik pilot loyihalar guruhi sifatida boshlangan loyiha hozirda Markaziy Osiyodagi eng dinamik va hayotiy DXSh portfelaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mamlakat energetika, markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti, sog'liqni saqlash, ta'lim, suv va transport sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan mintaqada birinchilardan bo'lib turibdi. OTB O'zbekiston bilan DXShning huquqiy va institutsional bazasini yaratishning dastlabki bosqichlaridan boshlab, bank



ishlab chiqish va amalga oshirish, samaradorlikni oshirish hamda mahalliy va xalqaro investorlarni jalb qilishda yordam berishdi. OTB, IFC, YeTTB, AIIB va boshqa hamkorlar DXSh loyihalarni tuzish, raqobatbardosh tenderlarni qo'llab-quvvatlash va tartibga solish bo'yicha maslahat berishda muhim rol o'ynadi. Ijobiy natijalar bilan birga institutsional salohiyatni yanada mustahkamlash va loyihalarni tayyorlashdan tortib, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va operatsion samaradorlikni ta'minlashgacha bo'lgan ba'zi muammolar saqlanib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, DXShni rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish, xavflarni kamaytirishning yangi

loyihalarni tayyorlash, moliyalashtirish va bilimlarni qo'llab-quvvatlashni safarbar qilishgacha bo'lgan jarayonda hamkorlik qilish sharafiga muyassar bo'ldi. OTB O'zbekistonda yigirmadan ortiq bitim va salohiyatni oshirish dasturlarini qo'llab-quvvatlaydi. Sherobod va G'uzor quyosh elektr stansiyalari, Toshkent shahar issiqlik ta'minoti, Namangan oqova suvlarini tozalash inshootlari va tenderda bo'lgan yoki ishga tushirilishi kutilayotgan ijtimoiy infratuzilma kabi muhim loyihalar orqali xizmatlar ko'rsatish yanada yaxshilanishi mumkin bo'ladi. Hozir infratuzilmaga investitsiya qilish uchun yangilangan dolzarb bir davrdir. Butun Osiyoda zamonaviy, iqlim-

ga chidamli infratuzilmaga talab tez sur'at bilan o'sib bormoqda, davlat resurslari esa cheklanganligicha qolmoqda. Shu bilan birga, investorlar uzoq muddatli, barqaror imkoniyatlarni qidirmoqda. DXSh modeli aynan mana shu chorrahada joylashgan — u xususiy kapital va nou-xauni rag'batlantirishni muvofiqlashtirgan, riskni samarali o'tkazadigan va aholi uchun pul qiymatini yaxshilaydigan tarzda davlat xizmatlarini ko'rsatishga yo'naltiradi. DXSh ishonch, oshkorlik, davlat va xususiy sheriklar o'rtasida xavf va mukofotlarning umumiy taqsimlanishiga asoslangan bo'lishi kerak. Shuning uchun davlat, investorlar, moliyachilar, maslahatchilar va operatorlarni



birlashtirgan muloqotlar katta ahamiyatga ega. Shuningdek, DXSh jarayonini yanada samarali, oqilona va mas'uliyatli qilish uchun institutsional salohiyat va raqamlashtirishni kengaytirish kerak. OTB O'zbekiston hukumati bilan yanada barqaror va muvaffaqiyatli davlat-xususiy sheriklik bozori sari yo'lni davom ettirish uchun hamkorlik qilishga tayyor.

Tadbirda DXSh sohasida raqamlashtirishni jadallashtirish bo'yicha belgilangan vazifalarga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini boshqarishning yagona elektron platformasi — "ppp.imv.uz" ishga tushirilayotgani e'lon qilindi. Uning asosiy maqsadi loyihalar sifatini va investorlar uchun jozibadorligini oshirish, ularning moliyaviy va institutsional barqarorligini ta'minlash, sohada sun'iy intellektdan foydalanishni kengaytirish hamda tashabbusdan amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonni samarali va tejamkor boshqarishni yo'lga qo'yishdan iboratligi qayd etildi. Mazkur platforma 2026-yil 1-yanvardan to'liq ish rejimida faoliyat yuritishi urg'ulandi.

Davra suhbatini mobaynida DXSh sohasida moliyalashtirishning yangi instrumentlari va zamonaviy yondashuvlarini joriy etish yo'lidagi amaliy yechimlar muhokama qilindi. Yangi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish



hamda kapitalning turli manbalarini safarbar etish masalalari diqqat markazida bo'ldi. Munozaralarda aralash moliyalashtirish modellari, xatarlarni kamaytiruvchi vositalar, xususiy sektorning turli sohalardagi DXSh loyihalarida faol ishtirokini kengaytirish strategiyalari batafsil tahlil qilindi. OTB tomonidan global "DXSh Monitor" platformasi taqdim etildi. Unda O'zbekistonning ushbu tizimdagi o'sish dinamikasi, sektorlar kesimidagi loyihalar hajmi va xalqaro taqqoslama ko'rsatkichlar yoritildi.

Ikki kun davom etgan tadbirda Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki, bir qator xorijiy kompaniyalar vakillari ham o'z fikr-mulohazalari va tajribalari bilan o'rtoqlashishdi.

Dunyo bo'yicha yetakchi oliygohlardan biri bo'lgan Stenford universiteti professori Maykl Bennon tomonidan O'zbekistonning DXSh modelini energetika, ta'lim, tibbiyot va boshqa muhim sohalarga faol tatbiq etish bo'yicha amaldagi tajribasi ushbu universitet o'quv dasturiga kiritilayotgani e'lon qilindi.

Tadbir doirasida bir qator muhim memorandum va hujjatlar imzolandi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida ikki tomonlama anglashuv memorandum, Nukus shahar issiqlik tizimini modernizatsiya qilish va boshqarish loyihasi bo'yicha Saudiyaning "Saudi Tabreed" kompaniyasi va "Issiqlik ta'minoti" AJ o'rtasidagi bitimning asosiy shartlari, Samarqand viloyatida elektr energiyasini taqsimlash tarmoqlarini modernizatsiya qilish va xususiy sherik boshqaruviga berish loyihasining xalqaro tender natijasi bo'yicha AKSA kompaniyasiga g'oliblik taqdimnomasini topshirish, "Risklarni qisman kafolatlash" bo'yicha tegishli bitimlar shular jumlasidandir. Shuningdek, Qoraqalpog'istonda joylashgan 135 ta nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish va xususiy boshqaruvga berish bo'yicha "Miahona" kompaniyasi va Suv xo'jaligi vazirligi o'rtasida hamkorlik bitimiga qo'shimcha kelishuv, Xorazm viloyatida joylashgan 250 ta nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish va xususiy boshqaruvga berish bo'yicha "Miahona" kompaniyasi va Suv xo'jaligi vazirligi o'rtasida hamkorlik bitimi, Urganch xalqaro aeroportini modernizatsiya qilish va xususiy sherik boshqaruviga berish yuzasidan Janubiy Koreyaning "Incheon" kompaniyasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi o'rtasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bitimlarga ham qo'l qo'yildi.







Zamira Tojiyeva.

# Milliy statistika: metodologik o'zgarishlar, qo'llanilayotgan xalqaro standartlar muhokama qilindi



Poytaxtimizda mamlakatimiz milliy statistika tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga bag'ishlangan xalqaro amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Tadbir Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT Aholishunoslik jamg'armasi hamda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonalarini hamkorligida tashkil etildi. Unda bir qator vazirlik-idoralar vakillari, xalqaro ekspertlar, tadqiqotchilar ishtirok etishdi.

Konferensiyaning asosiy maqsadi aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha hamda milliy statistika tizimidagi joriy ishlar, metodologik o'zgarishlar, qo'llanilayotgan xalqaro standartlar, ularning ijrosi bo'yicha fikr almashishga qaratildi.

Tadbirda dastlab mamlakatimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayoniga tayyorgarlik ishlari yuzasidan batafsil ma'lumot berildi. Ta'kidlanganidek, ro'yxatga olish ishlari 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich onlayn ravishda amalga oshirildi va u 17 kun davom etadi. Bunda fuqarolar census.stat.uz sayti orqali OneID tizimi yordamida mustaqil ravishda ma'lumot kiritgan holda ro'yxatdan o'tadi. Ikkinchi bosqichda 25 kun davomida "Mahalla yettiligi" a'zolari uyuma-uy yurib ma'lumot yig'ishadi. Jamlangan ma'lumotlar xalqaro standartlar asosida qayta ishlanadi. Ro'yxatga olish bo'yicha so'rovnoma jami 71 ta savoldan iborat bo'lib, ularning 54 tasi aholi, 17 tasi qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan. Savollar asosan demografiya, bandlik, daromad, turar joy sharoiti, chorvachilik, yer va ekin maydonlari kabi masalalarni qamrab oladi. Ushbu masala muhokamasi chog'ida aholini ro'yxatga olishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro tajriba va aniqlikni ta'minlash jihatlariga e'tibor berildi. Ro'yxatga olish jarayo-

nidagi tashkilotchilik ishlari, ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni raqamlashtirish, aholini to'liq qamrab olishning samarali mexanizmlari haqida taklif-tavsiyalar bildirildi.

Konferensiyada yalpi ichki mahsulotni qayta hisoblash natijalari taqdim etilib, ko'zlangan maqsad yangi aniqlangan hajmlarni aks ettirish ekanligi urg'ulandi. Milliy statistika qo'mitasi raisi Behzod Hamrayev, Iqtisodiyot va moliya vazirligi departament rahbari Abdumalik Jalilov, Xalqaro valyuta jamg'armasi eksperti Levan Gogoberishvili (onlayn tarzda) tomonidan qayta hisoblash jarayonlari, ma'lumotlar manbalarining integratsiyasi hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha aniqlik kiritish amaliyoti batafsil tushuntirib berildi. Xalqaro tajriba asosida amalga oshirilgan ushbu jarayon YaIMni hisoblashdagi aniqlik, shaffoflik va ishonchlilikni kuchaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. E'tirof etilganidek, xalqaro amaliyotda milliy hisoblar tizimidagi vaqt qatorlarini qayta ko'rib chiqishning ikki asosiy turi mavjud bo'lib, ular o'zaro taqqoslanish imkoniyati va baholash natijalarining yuqori aniqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Birinchisi konseptual (bazaviy) – keng qamrovli bo'lib, bir necha yillarni o'z ichiga oladi. Odatda, bu asosan yangi uslubiyot joriy etilganda yoki yangi ma'lumot manbalari paydo bo'lgandagina amalga oshiriladi. Ikkinchisi joriy (rejali) shakl bo'lib, bunda dastlabki hisob-kitoblarni yillik statistik ma'lumotlar asosida to'liq qayta ko'rib chiqilib, ko'rsatkichlarning aniqligi va ishonchliligi ta'minlanadi. Taqdim etilgan ma'lumotga ko'ra, Milliy statistika qo'mitasi milliy hisoblar tizimidagi vaqt qatorlarini konseptual qayta ko'rib chiqish ishlarini Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari ko'magida amalga oshirgan. Bunda Soliq qo'mitasidan olingan korxo-

nalarning tovarlar aylanmasi statistik hisobotlar ma'lumotlari bilan taqqoslab qayta ko'rib chiqilgan. Shuningdek, sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasiga oid yangi ma'lumotlar manbalari ushbu o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Chunonchi, 2024-yil uchun vazirlik va idoralarning budgetdan tashqari rivojlantirish jamg'armalari xarajatlari va boshqa xarajatlar o'rganilgan, natijada qo'shimcha ravishda 36,4 trln so'm yangi qo'shilgan

uslubiyotini takomillashtirish masalalariga bag'ishlandi. Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank mas'ul xodimlari iste'mol narxlari indeksini shakllantirishda xalqaro standartlarga o'tish, kuzatuv obyektlari sonini oshirish, narxlar monitoringida raqamli manbalardan foydalanish va hisoblash formulalarini yangilash bo'yicha rejalashtirilayotgan ishlar haqida so'z yuritishdi. Mutaxassislar inflyatsiya ko'rsatkichlarining aholi farovonligi va iqtisodiyotdagi aha-

ko'zda tutilmoqda. Hozirda iste'mol narxlari indeksini hisoblashda Lov (Lowe) formulasi qo'llanilayotgan bo'lsa, 2026-yildan e'tiboran xalqaro tavsiyalar va zamonaviy statistik yondashuvlar asosida hisob-kitoblarda Yang (Young) formulasi o'tish rejalashtirilgan. Yangi yondashuv narxlarining o'zgarishini yanada haqqoniyroq aks ettiradi, aholining xarid odatlaridagi real o'zgarishlarni inobatga oladi, yuqori o'zgaruvchan tovarlarning ta'sirini muvozanatlaydi, vaqt bo'yicha izchil inflyatsiya dinamikasini shakllantiradi. Uy-joy narxlari indeksini hisoblashda gedonik regressiya modeli joriy etiladi. Yakka tartibdagi uylar narxlarini o'rganish bo'yicha kuzatuvlar amaliyotga joriy etilib, uy-joy narxlari indeksini hisoblashda inobatga olinadi.

Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish istiqbollari o'z ichida ham konferensiya davomida atroflicha muhokama qilindi. Bunda mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan tizimni raqamlashtirish, ma'lumotlar sifatini yaxshilash, global statistik innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan yondashuvlar bo'yicha taqdimot qilindi. Muhokamalarda milliy statistika tizimini isloh qilishda statistik ma'lumotlarning ochiqligi va aholining statistikaga ishonchini oshirish muhim ustuvor vazifa ekanligi ta'kidlandi. 2026-2030-yillarga mo'ljallangan statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasini ishlab chiqish ko'zlangan bo'lib, u kelgusi 5 yil davomida milliy statistika tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha strategik qarashni o'z ichiga oladi.

Tadbir yakunida e'tirof etilganidek, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ko'rilayotgan choralar, aniq, ishonchli va sifatli statistik ma'lumotlar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda manzilli va to'g'ri qarorlar qabul qilinishi uchun muhim asos bo'lishi, shubhasiz.



qiymat aniqlangan. Masalan, sanoat sohasi bo'yicha 2024-yil uchun qo'shilgan qiymat hajmi 12,7 trln so'mga oshgan. Qishloq xo'jaligida 5,6 trln so'm, qurilishda 10,3 trln so'm va xizmatlar sohasida 16,3 trln so'm miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat qo'shimcha hisoblangan. Yakuniy hisob-kitoblarga qaraganda, 2024-yilda respublika yalpi ichki mahsulotining nominal hajmi amaldagi 1 454,6 trln so'mdan 1 535,4 trln so'm (80,9 trln so'm) ga yoki 5,6 foizga ortgan. YaIM AQSH dollari hisobida 115,0 mlrd dollardan 121,4 mlrd dollarga yetgan. Qayta hisoblashdan so'ng 2024-yilda aholi jon boshiga YaIM hajmi 41,3 mln so'mni tashkil etgan.

Anjuman dasturidagi muhim mavzu inflyatsiyani hisoblash

miyatini inobatga olgan holda metodologiyani yangilash muhimligini qayd etishdi. Berilgan ma'lumotga ko'ra, Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari bilan birgalikda 2026-yildan boshlab mamlakatimizda inflyatsiyani hisoblash uslubiyotini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Bunda, iste'mol narxlari indeksini hisoblashda 10 kunlik (har oy 10–20 sanasida) kuzatuvdan 30 kunlikka o'tish mo'ljallangan. Bu orqali oy davomida narxlar dinamikasi to'liq qamrab olinadi, ma'lumotlarning sifati, aniqligi, ishonchliligi yaxshilandi. Shuningdek, narx kuzatuv obyektlari sonini 4 500 dan 7 200 ga ko'paytirish, muqobil ma'lumotlar manbalaridan olinadigan oylik narxlar sonini 100 mingtaga yetkazish

## Moliyaviy barqarorlik: tahlil natijalari

Markaziy bank tomonidan yilda ikki marotaba chop etiladigan Moliyaviy barqarorlik sharhining navbatdugisida mamlakatimiz iqtisodiyoti va moliya tizimining bugungi holati batafsil tahlil qilingan.

Unga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmida makromoliyaviy sharoitlar yengillashdi. Ichki valyuta bozorida o'zgarishlar, bank sektori va makroiqtisodiy holat O'zbekiston moliyaviy sharoitlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yurtimiz bank tizimining moliyaviy holati barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Jami regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti 17,4 foizni tashkil etib, minimal chegaradan yuqori bo'ldi. Bank tizimida muammoli kreditlarning ulushi past darajada shakllanmoqda. Ushbu tizimning likvidlilik xatarlariga bardoshlilik holati yaxshilangan. Jami aktivlar tarkibida yuqori likvidli aktivlarning ulushi ortib bormoqda.

Bank tizimida moliyaviy stress holati past darajada qolmoqda. Hisobot davrida ichki valyuta bozoriga xos bo'lgan tebranuvchanlik va pul bozorida holatning deyarli o'zgarishsiz qolganligi hamda bank sektorida ijobiy o'zgarishlarning kuzatilganligi ta'sirida moliyaviy stressning bank tizimiga tarqalishi bilan bog'liq xatar darajasi o'zining tarixiy o'rtacha trendida shakllandi. Tizimli ahamiyatga molik banklarda defoltgacha bo'lgan masofa hamda defolt ehtimolligi bilan bog'liq holat yaxshilangan.

Makroprudensial kapital vositalarini joriy qilishning ahamiyati oshib bormoqda. Bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan likvidlilik va qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalari doimiy takomillashtirilib, faol foydalanib kelinmoqda. Ayni vaqtda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davriy tizimli xatarlarning salbiy ta'sirini kamaytirish va banklarning to'lov qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladigan makroprudensial kapital vositalariga zarurat paydo bo'lmoqda.

Korporativ sektorda xavotirlar biroz pasaygan. Xorijiy valyutadagi korporativ kreditlarning ulushi biroz kamaydi. Korporativ kreditlar qoldig'ining YaIMga nisbati pasayib, o'zining uzoq muddatli trendiga nisbatan manfiy tafovuti kengaymoqda. Yirik korxonalar bo'yicha leveraj koeffitsiyentida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Shuningdek, korxonalarining likvidlilik



holati hamda rentabellik ko'rsatkichlari mustahkamlandi.

Qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial vositalarning qo'llanilishi hamda moliyaviy sharoitlar ta'sirida aholi qarz yuki holati yaxshilandi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI) cheklovining qat'iyashtirilishi aholining umumiy qarz yuki darajasining 33 foizgacha pasayishida o'z ifodasini topdi. Aholining DSTI ko'rsatkichi yuqori bo'lgan ipoteka va avtokreditlarda ijobiy o'zgarish kuzatildi.

Aholining barcha qarz majburiyatlari summasi tarkibida bankdan tashqari majburiyatlarning ulushi past darajada shakllanmoqda. Jismoniy shaxslar barcha majburiyatlarining 93 foizi bank kreditlari hissasiga to'g'ri kelgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining YaIMga nisbati ko'rsatkichining amaldagi qiymati bilan uzoq muddatli trendi orasida manfiy tafovut shakllangan. Bankdan kredit olgan jismoniy shaxslar orasida bir nechta qarz majburiyatlari mavjud bo'lgan holatlar ko'paymoqda.

Mikroqarzarlar bo'yicha kredit portfeli sifati yomonlashgan. Banklar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzarlar qoldig'idagi yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda. Bir nechta mikroqarzar shartnomasi mavjud qarzdorlar ko'lami ortmoqda.

Avtokreditlar bozorida tartibga solish arbitraj bilan bog'liq xavotirlar paydo bo'lmoqda. Avtokreditlar bo'yicha o'rnatilgan bilvosita cheklovlarning samarasi ma'lum bir kechikish bilan namoyon bo'lmoqda. Avtokreditlar bo'yicha konsratsiya xavfi rasmiy hisobot ma'lumotlariga ko'ra pasaymoqda. Biroq, ayrim banklar amaldagi konsratsiya cheklovlarni chetlab o'tish amaliyotlari orqali tartibga solish arbitraj bilan bog'liq xatarlarni keltirib chiqarmoqda.

Uy-joy narxlarida tuzatishlar kuzatilmoqda. Ko'chmas mulk bozorida taklifning ortganligi, shuningdek spekulativ talabning kamayganligi fundamental qiymat va bozor narxi orasidagi tafovut 17 foizdan 4 foizgacha pasayishiga ta'sir ko'rsatgan. Ipoteka kredit standartlari biroz yumshagan hamda mehnatga layoqatli aholi orasida ipoteka krediti mavjud qarzdorlar ko'lami kengaymoqda. Aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati pasayishdan to'xtagan. Uy-joy narxlarini aholi jon boshiga hisoblangan YaIMga nisbatan pasaymoqda.

Xatarli ssenariy bo'yicha makro stress-testi natijalari banklarning to'lov qobiliyati pasayishi mumkinligini ko'rsatdi. 2028-yil yarim yilligi yakunida bank tizimining birinchi darajali asosiy va jami regulyativ kapitali monandlilik koeffitsiyentlari mos ravishda 6,1 hamda 8,4 foizlargacha pasayishi mumkin. Kapital yetarililigi ta'minlashda xatarli ssenariyda yuqori miqdordagi qo'shimcha kapi-

talga talab paydo bo'ladi. Xatarli ssenariy bo'yicha bank defoltining bank tizimiga tarqalish xatari biroz ortgan.

Likvidlilik makro stress-testi natijalari bank tizimida likvidlilik holati barqarorligini namoyon etdi. Bank tizimi bo'yicha milliy valyutadagi qisqa muddatli aktivlar hisobidan qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda barqaror holat kuzatilmogda. Xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarning muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik darajasi past shakllanmogda. Xatarli ssenariy bo'yicha ushbu banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy pul kiritimini qoplash uchun yetarli yuqori likvidli aktivlarning mavjudligi bank tizimi bo'yicha likvidlilik xatarini yuzaga kelishini oldini oladi.

Banklar depozit portfelida yirik depozitorlar bilan bog'liq konsratsiya xavfi yuqori darajada saqlanib qolmogda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, milliy valyuta bo'yicha eng yirik depozitor mablag'ining ushbu valyutada jalb etilgan barcha depozitlardagi o'rtacha ulushi 25 foizni, xorijiy valyutada 34 foizni tashkil etmogda. Milliy valyutadagi depozitlarning xorijiy valyutadagi depozitlar qoldig'iga nisbatan 3,2 marta ko'p ekanligi milliy valyutadagi depozit konsratsiyasi bilan bog'liq xatar ko'laminin yuqoriligidan dalolat beradi.

Moliya tizimi barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlar saqlanib qolmogda. Bunday xatarlar qatoriga tashqi moliyalashtirish manbalarning no-barqarorligi, banklarda depozit konsratsiyasining mavjudligi, mikroqarzarlar bo'yicha kredit xatarining ortishi, uy-joy narxlarida tuzatishlar bo'yicha noaniqliklar hamda kiberhujumlar xavfini kiritish mumkin.



## Namangan mahsulotlari xalqaro bozorda



O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ko'magi bilan Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan "Aisha Home Textile" kompaniyasi Rossiya Federatsiyasining Ufa shahrida o'zining rasmiy savdo uyini ishga tushirdi.

"Aisha Home Textile" kuniga 30 tonna, oyiga qariyb 1 000 tonna, yiliga esa 12 ming tonnaga yaqin tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Mazkur zamonaviy korxonada ichki bozordagi talabni to'liq ta'minlab, eksport ko'laminin bosqichma-bosqich kengaytirib bormogda. Bugungi kunda korxonada mahsulotlari 16 ta davlatga eksport qilinmogda. Ular orasida AQSH, Polsha, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston, Rossiya, Belarus, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Tatariston, Checheniston, Isroil, Ruminiya va Italiya kabi davlatlar bor. Korxonada tomonidan amalga oshirilayotgan tashqi savdo hajmi hozirda yiliga 25 million dollardan ortiqni tashkil qilmogda. Bu natija O'zbekistonning tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportini ko'paytirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy samarasidir.

Ufa shahrida tashkil etilgan yangi savdo markazi o'zbek mahsulotlari uchun mintaqada barqaror



platforma yaratadi. Mahsulotlarni to'g'ridan to'g'ri iste'molchiga yetkazish, logistika xarajatlarini optimallashtirish, talab va bozordagi o'zgarishlarni tezkor o'rganish imkonini beradi.

Loyihaning ikkinchi bosqichida Ufa shahrida kostyum-shim va

erkaklar kiyimi yo'nalishida faoliyat yuritayotgan yirik korxonalar uchun ham savdo uylarini tashkil etish rejalashtirilgan. Bu tashabbus o'zbek yengil sanoati mahsulotlarini Rossiya bozoriga tizimli va keng ko'lamda chiqarish imkoniyatini yanada oshiradi.



# Встреча с президентом Азиатского банка развития

17 ноября состоялась встреча заместителя Премьер-министра Жамшида Ходжаева с президентом Азиатского банка развития Масато Канда.

Стороны обсудили текущее состояние сотрудничества и дальнейшие направления взаимодействия, отметив 30-летие партнёрства Узбекистана и АБР.

Подчёркнуто, что сотрудничество демонстрирует устойчивую динамику и охватывает транспорт, энергетику, водоснабжение, образование, развитие частного сектора и поддержку бизнеса. Узбекская сторона выразила признательность АБР за вклад в реформы и проекты по повышению качества жизни населения.

Особое внимание уделено подготовке к 59-му ежегодному заседанию Совета управляющих АБР, которое пройдет в мае 2026 года в Самарканде. Предложено утвердить совместную дорожную карту для координации процесса.

Обсуждены инициативы на среднесрочный период: расширение механизмов финансирования, разви-



тие инфраструктуры экономических зон, поддержка занятости женщин и молодежи, стимулирование экспортоориентированных предприятий и укрепление роли частного сектора. Также рассмотрена подготовка новой Программы партнёрства Узбекистан - АБР на 2026-2030 годы.



По итогам встречи подписано кредитное соглашение на 100 млн долларов в рамках проекта «STEM в среднем образовании», направленного на модернизацию STEM-обучения в школах.



## Казахстан и Узбекистан будут совместно строить нефтегазохимический комплекс

Как сообщает МИА Казинформ, КазМунайГаз и Узбекнефтегаз подписали Рамочное соглашение о реализации проекта по производству линейного алкилбензола.

В рамках госвизита Президента Казахстана Касым-Жомарта Токаева в Узбекистан состоялось подписание Рамочного соглашения о совместной реализации проекта «Строительство нефтегазохимического комплекса по производству линейного алкилбензола» между АО НК «КазМунайГаз» и АО «Узбекнефтегаз».

Соглашение закрепило договоренности сторон о совместном изучении реализации инвестиционного проекта. Подписанное соглашение позволит начать

стадию проектирования и проведения всех необходимых расчетов.

Предполагаемая мощность нефтегазохимического комплекса составит до 50 тысяч тонн продукции в год. Линейный алкилбензол является базовым сырьем для производства синтетических моющих средств и бытовой химии.

Окончательное инвестиционное решение стороны будут принимать по результатам завершения проектных работ. Реализация проекта обеспечит внутреннюю потребность Казахстана и Узбекистана, снизит зависимость от импорта сырья для химической промышленности и стимулирует развитие перерабатывающего сектора и новых производств в области бытовой химии.

## Обсуждены практические аспекты функционирования Узбекско-Туркменской зоны приграничной торговли

На полях официальных событий в г. Ташкенте Министр инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан Лазиз Кудратов и министр торговли и внешнеэкономических связей Туркменистана Назардурды Агаханов обсудили практические аспекты функционирования Узбекско-Туркменской зоны приграничной торговли.

Согласованы правовые условия работы совместного торгового центра, который рассматривается в качестве площадки для расширения взаимного товарооборота, продвижения национальной продукции и развития предпринимательства по обе стороны границы.

Общая площадь центра - 6 гектаров: 3 га узбекская часть и 3 га туркменская. При необходимости территория может быть расширена отдельным международным соглашением.

Граждане обеих стран могут въезжать и выезжать на территорию зоны приграничной торговли без оформления виз.

Открытие Узбекско-Туркменской зоны приграничной торговли позволит предпринимателям Узбекистана и Туркменистана свободно торговать своими товарами, используя общую инфраструктуру и упрощённые процедуры. Таким образом, созданы новые возможности для развития трансграничной торговли и укрепления сотрудничества между нашими странами.



## Узбекистан ведёт активную подготовку к VIII Ассамблее ГЭФ

Министр экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Азиз Абдухакимов провёл встречу с Генеральным директором Секретариата Глобального экологического фонда (ГЭФ) Питером Лалласом и его миссией.

Главной темой переговоров стала подготовка к 8-й Ассамблее ГЭФ, которая пройдёт в Самарканде с 31 мая по 5 июня 2026 года.

Открывая встречу, министр тепло приветствовал делегацию ГЭФ и выразил признательность за высокий уровень взаимодействия. А. Абдухакимов подчеркнул, что Узбекистан придаёт большое значение

сотрудничеству с ГЭФ, поддерживающим важнейшие природоохранные и устойчивые инициативы в стране и регионе. Он подтвердил готовность Узбекистана к проведению Ассамблеи на самом высоком уровне и отметил, что это событие станет значимым вкладом в продвижение глобальной экологической повестки. Особый акцент был сделан на укреплении партнёрства в Центральной Азии, обмене опытом в борьбе с загрязнением воздуха, пыльными бурями и развитии зелёных технологий.

Было отмечено, что Узбекистан имеет большой опыт в проведении крупных международных мероприятий: Генеральная Ассамблея UNWTO в 2023 году,

CMS COP14 в 2024-м, а также 43-я Генеральная Ассамблея ЮНЕСКО, которую миссия ГЭФ смогла посетить в рамках визита.

В свою очередь Питер Лаллас выразил благодарность за тёплый приём и высокую организацию миссии, отметив впечатление от природы, культурного наследия и динамичного развития Самарканды. Он подчеркнул, что ГЭФ высоко ценит усилия Узбекистана в продвижении экологической повестки и готов к дальнейшему укреплению партнёрства.

Было предложено дополнить программу Ассамблеи сопутствующими мероприя-

тиями: симпозиумом художников и скульпторов, подготовкой фотоальбома проектов ГЭФ в Узбекистане и выездными экскурсиями на объекты в Кашкардарьинской области и Республике Каракалпакстан. Отдельно было предложено создать анимационный логотип Ассамблеи и сформировать рабочую группу с назначением ответственных лиц.

По итогам переговоров стороны подтвердили стремление к тесному взаимодействию по всем аспектам организации 8-й Ассамблеи ГЭФ, которая соберёт в Самарканде более 1500 участников – представителей правительств, международных организаций, бизнеса и научных кругов.



## Quyosh panellari o'rnatganlarga 153 mlrd so'mdan ziyod subsidiya berilgan

2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida 35 284 nafar jismoniy shaxs elektr tarmoqlariga o'tkazilgan quyosh energiyasi uchun 153 mlrd 643 mln so'm davlat budjetidan subsidiya oldi.

Subsidiyaning eng katta qismi quyidagi hududlarga to'g'ri kelmoqda:

- Xorazm viloyati – 42,6 mlrd so'm;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi – 22,4 mlrd so'm;
- Buxoro viloyati – 15,3 mlrd so'm.

Subsidiyani "Soliq" mobil ilovasi "Keshbek va imtiyozlar" xizmatining "Quyoshli xonadon" bo'limidagi "Kartaga pul o'tkazish" oynasi orqali bank kartasiga o'tkazib olish mumkin.

Eslatib o'tamiz, 2023-yil 1-apreldan "Quyoshli xonadon" dasturi doirasida xonadoniga quyosh panellarini o'rnatgan jismoniy shaxslarga quyosh paneli orqali ishlab chiqarilgan va yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt soati uchun 1000 so'mdan subsidiya ajratilishi belgilangan.

### 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida "quyoshli xonadon" xizmati orqali jismoniy shaxslarga ijobiy tafovut miqdoridan to'langan subsidiya summalari

29.10.2025-yil holatiga

9 oylik /  
sentyabr

Foydalanuvchilar soni


35 284 /  
35 108

Subsidiya soni  
(ming ta)

188,9 /  
35,9

Subsidiya summasi  
(mln so'mda)

153 643,1 /  
33 484,6



#### Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

**"Бизнес-Daily Медиа"**  
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир  
**У. ПУЛАТОВ**

#### Мурожаат учун

Тел.:  
+998 (99) 353-55-54

E-mail:  
biznesdm 2020@gmail.com

Манзил:  
100000, Тошкент шаҳри,  
Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily "Биржа"дан кўчириб босиш фақат

"Бизнес-Daily Медиа" НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily "Биржа" оригинал макети.

© Газета текин тарқатилади

